

# Huquqiy Madaniyatni Shakllantirishda Yuridik Ta'limning Ahamiyati

**Jo'rayeva Farangiz Bahrom qizi**  
Yurisprudensiya yo'nalishi talabasi

**Annotasiya:** Ushbu maqola, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish, uning huquqiy asoslarini yaratish, jamiyatda fuqorolar ayniqsa yosh avlodning huquqiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish shuningdek, yuridik yo'nalishda o'qiydigan talabalarning, "aholining huquqiy madaniyatini oshirish" bo'yicha qaratilgan amaliy tadbirlar xaqida keltirilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Huquqiy mafkura, huquqiy davlat, qonun ustuvorligini, demokratik isloxotlar, xuquqiy ko'rsatmalarni, huquqiy ta'lim, huquqiy savodxonlik.

## I. Kirish.

Bilamizki, yoshlarni huquqiy tarbiyalash huquqiy davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni insonparvarlik, vatanparvarlik va milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalashda hamda huquqiy bilimlarini oshirishda huquqiy ta'lim asosiy rol o'ynaydi. Yoshlarga huquqiy ta'lim berishda va tarbiyalashda biz uchun qadrlil bo'lgan milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz, o'chmas merosimizga mehr-muhabbat, ularga sodiqlik ruhini shakllantira olsak, har birimiz uchun ijobiy natija bajarayotgan ishlarimizning mahsuli ekanligi bilinadi. Huquqiy ta'lim-tarbiya boshqa turdagi tarbiya bilan o'zaro yaqin.

Xuquqiy tarbiya- bu shaxsga nisbatan huquqiy ongni, xuquqiy ko'rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarni shakllantiruvchi uyushgan, bir tizimli, aniq maqsadni ko'zlagan xoldagi tasvir ko'rsatilishidir.

Shuni ta'diklash kerakki, yaqin o'tmishda xam xuquqiy tarbiyaga u xaqiqatda sazovor bo'lishi kerak bo'lganidek darajada e'tibor berilmas edi. Pedagogikaga doir darsliklarda shxsnng aqliy kamoloti, mehnati, jismoniy, ma'naviy, estetik tarbiyasi xaqida so'z borar ediyu, lekin xuquqiy tarbiya xususida eslatilmasdi.

Shubxasiz, xuquqiy, siyoziy va ma'naviy ongning o'zoro bog'liqligini esdan chiqarmaslik kerak, lekin shuni xam nazarda tutish lozimki, ularni bir-biri bilan qo'shib yuborish mumkin.

## II. Adabiyotlar tahlili va metodlar

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza

qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmagan.

O'ylashimcha, aholining huquqiy tarbiyasi va ta'limini takomillashtirishga ta'lim va tarbiyaning hali foydalanilmagan mexanizmlarini yaratish, ulardan samarali foydalanish, tarbiya va ta'limning yangi shakllari va vositalarini joriy etish, moddiy-texnika negizini kuchaytirish yo'li bilan erishiladi. Xalqni huquq sohasida madaniyatliqlashning yana bir tomoni Oliy Yuridik ma'lumotli kadrlarni sonini ko'paytirish va sifatini oshirish. Buning

World of Science January, Volume-7, Issue-15 uchun Oliy Yuridik ta'lim beruvchi ta'lim muassasalarini sonini ko'paytirish, yetuk malakali huquqshunos kadrlarni tayyorlash. Shu o'rinda Abu Nasr Farobiyning fikrlarini esga olaylik. Mashhur faylasuf har bir mansabdor shaxs qonunlarni chuqur o'rganishi, ularga rioya qilishda shaxsan namuna bo'lishi, aholi o'rtasida qonunlarni keng targ'ib qilish, uni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritib bilishi, joiz bo'lsa, qonun yoza olishi shartligini ilgari surgan. Ayni shu mezonlardan kelib chiqib Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yildagi farmonlarida fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish-demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!", -degan hayotiy g'oyani mustahkamlash, aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish birlamchi vazifalardan etib belgilandi. Mustaqillik yillarida o'sib kelayotgan yosh avlodni intellektual boylik yarata oladigan qilib tarbiyalashga e'tibor qaratilib, bu borada yurtboshimizning: "Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'zoldimizga maqsad qilib qo'yganmiz", -degan fikrlari juda o'rindidir.[1]

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi.

Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta'sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko'rsatadi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

1. Quyidagilar jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari etib belgilansin:

aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!" degan hayotiy g'oyani mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini keng targ'ib qilish;

yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish;

Va shu kabi ishlarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.[2] Aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonligini oshirish, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari davlat organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. U "shaxs - oila - mahalla - ta'lim muassasasi - tashkilot - jamiyat" prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy tashkil etiladi.

2022-2023 yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi quyidagilarni nazarda tutadi:

- oilada va ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyani shakllantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar:
- notinchlik va zo'rvonlikning bolalar tarbiyasidagi salbiy oqibatlari haqida ma'lumot yetkazish va ularning oldini olish;
- oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv markazlarida inson huquqlari, ayollar huquqlari, bola huquqlari o'quv kurslarini tashkil etish;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga imtiyozlar va moddiy yordam berish masalalari bo'yicha axborot-targ'ibot ishlari va boshqalar;
- davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar:
- "Huquqiy savodxonlik oyligi", "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi" va "Konstitutsiyaviy huquq oyligi"ni o'tkazish;
- huquqiy savodxonlikka oid minimal talablar bo'yicha o'qitish va ularning huquqiy bilimlarini baholash va boshqalar;[3]

"Jamiyat va davlat taraqqiyotining xozirgi xolati xuquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarining huquqiy madaniyatini, xuquqiy savodxonligini xar tomonlama oshirishni talab qilmoqda. Xuquqiy madaniyat xuquqiy bilim, xuquqiy e'tiqot va izchil amaliy faoliyat majmui sifatida jamiyat va davlat oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatli xal etilishini ta'minlaydi", -deyiladi jamiyatda xuquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturida.[4]

"Jamiyatda xuquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" davlat siyosatining yangi xuquqiy manaviyati va mamlakatdagi xuquqiy madaniyatni shakllantirish borasidagi strategik yo'nalishlarni belgilab berdi. Bundan tashqari, prezident farmoni asosida Vazirlar Mahkamasining tashkiliy-huquqiy masalalarni xal etishga qaratilgan bir qator qarorlari qabul qilindi. Jumladan, 1997-yil 10-iyulda "O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tizimida fuqorolarning qonunchilikning buzulishi yuzasidan shikoyat va arizalarini ko'rib chiqish boshqarmasini tuzish to'g'risida" , 1997-yil 22-iyulda " Xuquqiy ma'rifat targ'iboti markazini tashkil qilish va xuquqiy adabiyotlarni axoliga yetkazib berishni yo'lga qo'yish to'g'risida" qarorlar qabul qilindi.

Shunday qilib, axolining xuquqiy madaniyatini ko'tarish va xuquqiy tarbiyasini yaxshilash bo'yicha davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun mustahkam xuquqiy poydevor yaratildi.[5]

### III. Muhokama

Har bir shaxsining qiziqqan fani bilan birgalikda sohasi ham bir-biridan farq qiladi. Ko'plab talabalar ingliz tili faniga qiziqish bildiradi, qiziquvchilarning sonini oshirish hamda ijodkorligini oshirishga imkon beradigan metod tanlash o'qituvchining vazifasidir. Qachonki talaba fanni yetarli darajada o'zlashtira olmasa, fanga qiziqishi pasayadi. Bertol Brext ta'kidlaganidek "Eng asosiysi insonni fikrlashga o'rgatishdir"[6]. Ko'p bilimga ega bo'lib, uni amaliyotda qo'llash fanni mukammal darajada o'rganishning asosiy omilidir. Miyya faoliyatini faollashtiradigan ta'lim usullariga ijtimoiy-psixologik trening, sintetika, autogen mashqa, morfologik tahlil, rolli o'yin, "aqliy hujum" va boshqalari kiradi. Aqliy hujum-(brain storming) inglizcha so'zdan olingan bo'lib, faol ta'limning boshqaruvining, va tadqiqotning metodlaridan biri hisoblanadi. Bu metod aqliy faollikni qo'zg'atadi, ijodiy va innovatsion jarayonlarni jadallashtiradi. Ijodiy faollikning va maxsuldorlikning stimulatori hisoblangan "Aqliy hujum" metodi asosan yangi, orginal fikrlarning

tugʻilishiga qarshilik koʻrsatuvchi tanqidiy muhitning yoʻqligi deb atalgan psixologik mexanizmga tayanadi. Bunday muhitda hech qanday tanqid qilinmaydi, notoʻgʻri fikr aytishdan qoʻrqilmaydi. Misol uchun aqliy hujum metodini qoʻllayotgan pedagog biror bir muammoni yoki oʻylashga majbur qiladigan mavzuni oʻrtaga qoʻyadi. Muhokama davomida oʻrganuvchi oʻzining shaxsiy fikrini berishni boshlaydi. Ushbu metodni Andijon qishloq xoʻjaligi va agrotexnologiyalar institutida qoʻllangan oʻz fikrini bayon qilishdan qoʻrqadigan talabalar muzokaraga kirishni boshladi. Talabalarda faol fikrlash malakasi oshish bilan birgalik, kutilmagan gʻoyalarning paydo boʻlish jarayonini namoyish eta olishadi.

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo boʻyicha taʼlim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni toʻplab, ular orqali maʼlum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va ogʻzaki shakllari mavjud. Ogʻzaki shaklida taʼlim beruvchi tomonidan berilgan savolga taʼlim oluvchilarning har biri oʻz fikrini ogʻzaki tarzda javob beradi[7]. “Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda taʼlim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati boʻladi, shu jumladan taʼlim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Taʼlim oluvchilar oʻz fikrini faqat ogʻzaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish koʻnikmasi rivojlanadi[8]. “Aqliy hujum” metodini qoʻllashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-gʻoyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-gʻoyalar, ular hatto toʻgʻri boʻlmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir taʼlim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan. “Aqliy hujum” metodi - biror muammo boʻyicha taʼlim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni toʻplab, ular orqali maʼlum bir yechimga kelinadigan metoddir [9]. Ushbu metod toʻgʻri va ijobiy qoʻllanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga oʻrgatadi. “Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda taʼlim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati boʻladi, shu jumladan taʼlim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. “AQLIY HUJUM” METODINI QOʻLLASHDAGI ASOSIY QOIDALAR:

1. Bildirilgan fikr-gʻoyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-gʻoyalar, ular hatto toʻgʻri boʻlmasa ham inobatga olinadi.

Ushbu metod orqali oʻrgatuvchi talabalarda yozish gapirish integratsiyasini oshishini sezishim mumkin.

#### **IV. Natija**

“Jamiyatda xuquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi” davlat siyosatining yangi xuquqiy manaviyati va mamlakatdagi xuquqiy madaniyatni shakllantirish borasidagi strategik yoʻnalishlarni belgilab berdi. Bundan tashqari, prezident farmoni asosida Vazirlar Mahkamasining tashkiliy-huquqiy masalalarni xal etishga qaratilgan bir qator qarorlari qabul qilindi. Jumladan, 1997-yil 10-iyulda “Oʻzbekiston Respublikasi adliya vazirligi tizimida fuqorolarning qonunchilikning buzulishi yuzasidan shikoyat va arizalarini koʻrib chiqish boshqarmasini tuzish toʻgʻrisida” , 1997-yil 22-iyulda “ Xuquqiy maʼrifat targʻiboti markazini tashkil qilish va xuquqiy adabiyotlarni axoliga yetkazib berishni yoʻlga qoʻyish toʻgʻrisida” qarorlar qabul qilindi.

Shunday qilib, axolining xuquqiy madaniyatini koʻtarish va xuquqiy tarbiyasini yaxshilash boʻyicha davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun mustahkam xuquqiy poydevor yaratildi[5]. Bundan koʻrinib turibdiki, aholining huquqiy ongini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar kun sayin koʻpaymoqda.

#### **V. XULOSA.**

Aholing huquqiy ongi va madaniyatini oshirish hozirgi kunga eng dolzarb muommolardan biri hisoblanmoqda. Shuning uchun asosiy eʼtibor aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga qaratilgan. “Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish- demokratik huquqiy davlat

qurishning garovidir!”. Shunday ekan, qonunlarning samarali ishlashi uchun fuqorolarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyat, huquqiy mafkurasini yuksaltirish juda muhim. Aholining barcha tabaqalari, ayniqsa yosh avlodning huquqiy bilim saviyasini yuqori darajada ko'tarish biz uchun qonun buzilishlari, adolatsizliklar, jinoyatning oldini olgan bo'lamiz. Yuridik yo'nalishda o'qiydigan talabalar sonini ko'paytish va bu orqali aholining huquqiy madaniyatini biroz bo'lsa xam rivojlantirishga erishamiz. Xozirgi kunda yoshlar ilmga chanqoqligi tufayli, asosan yoshlarga ko'proq huquqiy ta'lim berish orqali jamiyatni huquqiy ilmli qilishga erishamiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Kenjayeva Sevinch Shamsiddin qizi Vol. 7 No. 1 (2024): WORLD OF SCIENCE
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023
3. Qonunchilik hujjatlari milliy bazasi, norma.uz 17.05.2022
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi.1997.N-9
5. A.Saidov, Tadjixanov.U Xuquqiy madaniyat nazariyasi 1-tom.T-1998
6. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - T.: O'qituvchi, 2004. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met. qo'll. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog'omova. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. - 193 bet.
7. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. - T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. - 115 b.
8. Akhmedova, M. T., Narmetova, Y. K., Nurmatova, I. T., & Malikova, D. U. K. (2022). Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(4), 54-60
9. Ishmuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari /O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik lisey va kasbhunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. - T.: TDPU, 2004.